

## TARJIMASHUNOSLIK

UO‘K (UDC, УДК): 82.091

LATIFALAR TARJIMASIDA EKSPISIT VA IMPLISIT  
IFODALANISHI<sup>19</sup>

*Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna*  
*Mustaqil izlanuvchi*  
*Mirzo Ulug‘bek nomidagi*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti*  
*Toshkent, O‘zbekiston*  
[khusanbayeva@bk.ru](mailto:khusanbayeva@bk.ru)  
+998935247116  
Orcid ID 0009-0008-4111-5177

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hozirgi lingvopragmatikaning asosiy masalalaridan hisoblangan eksplisit va implisit tushunchalarini o‘zbek latifalarining ingliz tilidagi tarjimasi qiyosida ko‘rib chiqiladi. O‘zbek latifalarini ingliz tiliga tarjimasining lingvopragmatik xususiyatlari taqqoslanar ekan, tarjima jarayonida tarjimaning qanchalik ta’sirli, asl matnga mos va ishonchli chiqishida implisit va eksplisit tushunchalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, tarjima jarayonida bir tildagi til birliklari, boshqa bir tilga tarjima vaqtida o‘z xususiyatini o‘zgartirishi mumkin, va boshqa til birliklari yordamida tarjima qilinishi mumkin bo‘ladi. Bunda asl matndagi yumor xususiyatini tarjima qilinayotgan tilda saqlanib qolinishi tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Va albatta, latifalarning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlaridan biri bu, latifalarda ko‘p hollarda ko‘tarilayotgan maqsad yashirin “kosa tagida nim kosa” tarzida uzatiladi va bu latifalarning ta’sirchanligini yanada oshiradi, asl matndagi hissiyot, kulgi, ochiq va yashirin ma’nolarni uzatish esa lingvopragmatikaning implisit va eksplisit tushunchalari haqida yanada kengroq fikr yuritish zarurligini keltirib chiqaradi. Zero bu, tarjimonlar oldiga qo‘yiladigan muhim masalalaridan biri bo‘lib, tarjima sifatiga salmoqli ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, bunga be’tiborlik, tarjima ma’nolarini o‘zgarib ketishiga olib kelishi mumkin. Kutilgan natijaga erisha olinmaydi.

## KALIT SO‘ZLAR

Implisit, eksplisit, asl matn, tarjima, latifa, ta’sirchanlik, yashirin, oshkora.

Received: December 6,  
2025

Accepted: December 30,  
2024

Available online: March 1,  
2025

<sup>19</sup> **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Umaraliyeva D. Latifalar tarjimasida eksplisit va implisit ifodalanishi.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 179-189

## ЭКСПЛИЦИТНОЕ И ИМПЛИЦИТНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ В ПЕРЕВОДЕ АНЕКДОТОВ

Умаралиева Дильдора Тахиржановна

*Независимый исследователь  
Национальный университет Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека*

*E-mail: [khusanbayeva@bk.ru](mailto:khusanbayeva@bk.ru)*

*+998935247116*

*Orcid ID 0009-0008-4111-5177*

### АННОТАЦИЯ

В данной статье понятия эксплицитность и имплицитность, которые считаются основными проблемами современной лингвопрагматики, рассматриваются на материале сравнения узбекских анекдотов с их переводом на английский язык. При сравнении лингвопрагматических особенностей переводов узбекских анекдотов на английский язык установлено, что свойства имплицитности и эксплицитности в процессе перевода занимают важное место при определении того, насколько удачен перевод, какова степень его соответствия и адекватности оригинальному тексту.

Известно, что в процессе перевода языковые единицы одного языка могут изменять свои характеристики при переводе на другой язык и переводиться с использованием других языковых единиц. В этом случае сохранение юмора исходного текста на языке перевода требует от переводчика большого мастерства. И конечно, одной из уникальных особенностей анекдотов является то, что во многих случаях трансляция намерения, заложенного в текстах данного жанра, осуществляется скрытым образом на основе эффекта «матрешки», что еще больше повышает степень воздействия этих юмористических миниатюр. Явный и неявный способы создания эмоциональности и юмористического эффекта в анекдотах диктует необходимость более глубокого изучения таких понятий лингвопрагматики, как имплицитность и эксплицитность. Для переводчиков это одна из самых важных задач и ее решение существенно влияет на качество перевода. Пренебрежение данным аспектом может привести к изменению смысла перевода. В этом случае ожидаемый результат не может быть достигнут.

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Имплицитный, эксплицитный, оригинальный текст, перевод, анекдот, эффективность, скрытый, явный.

---

**EXPLICIT AND IMPLICIT EXPRESSION IN THE TRANSLATION OF ANECDOTES****Umaralieva Dildora Takhirjanovna***Independent researcher,**Ph.D. student of the National University of**Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek**E-mail:khusanbayeva@bk.ru**+998935247116*

---

**ABSTRACT**

This article discusses the explicit and implicit concepts that are considered to be the primary concerns of current linguopragmatics, in relation to the translation of Uzbek anecdotes into English. In the analysis of the linguistic and pragmatic elements in the translation of Uzbek anecdotes into English, the implicit and explicit concepts play a crucial role in determining the effectiveness, consistency, and reliability of the translation in relation to the source text.

It is a known fact that during the process of translation, linguistic units from one language may undergo changes in their characteristics when translated into another language, and can be rendered using alternative linguistic units. In this instance, maintaining the humor in the original text when translating it into another language requires a high level of proficiency from the translator. Additionally, one notable aspect of anecdotes is their tendency to convey a concealed purpose through a "cup under cup" technique, thereby further enhancing their effectiveness. The original passage conveys emotion, laughter, openness, and the exchange of implied meanings, thus necessitating a broader consideration of the implicit and explicit concepts of linguistic pragmatics. Due to the significance of this matter for translators, it greatly affects the quality of the translation. Failing to address this issue may result in alterations to the translation's intended meaning. The expected result cannot be achieved.

---

**KEY WORDS**

Implicit, explicit, original text, translation, anecdote, impression, hidden, overt.

## KIRISH

Latifalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu latifalarda ko‘tariladigan ma’noning yashirin, ba’zida esa hech qanday vositalarsiz tinglovchi va o‘quvchilarga ochiq bayon etilishidir. Hozir ko‘rib chiqiladigan mavzuyimiz latifalarning tarjimasida ma’nolarning yashirin (implisit), hamda ochiq (eksplisit) ifodalanishiga to‘xtalib o‘tsak.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, latifa matnlarida maqsadning “kosa tagida nim kosa” tarzida yetkazilishi, yoki maqsadning shundoqqina bayon etilishi, latifalarning bir holatdan boshqa bir holatga o‘tilishidagi ekspressivlik, ta’sirchanlikni uyg‘otib, bir vaqtning o‘zida tinglovchida ham kulgi, ham fikrlashga majbur qiladi.

Hozir biz tahlilini boshlagan yashirin ma’no-yoki bo‘lmasam implisit tushunchasi adabiyot, falsafa, psixologiya va tilshunoslikda, ayniqsa tilshunoslikning pragmatika va semiotika bo‘limlarida keng miqyosda tadqiq qilinib, matnlar orasida kuzatiladigan yashirin ma’nolarni aniqlash va ko‘nikma hosil qilish, turli tinglovchilarda turlicha qabul qilinuvchanlik holatlari o‘rganiladi.

Impisit va eksplisit tushunchalari lingvopragmatikaning semantik-pragmatik yo‘nalishida keng tadqiq etilib, uning tilshunoslikda o‘rganilishining dastlabki namunalari amerikalik tilshunos olim N.Chomskiy (“Aspects of the theory of Syntax”, 1965) asarlarida keltirilgan bo‘lsa-da (asarda olim e’tiborini tilning umumiy tuzilish qoidalariga qaratgan bo‘lib, implisit va eksplisit tushunchalariga biroz to‘xtalib o‘tadi), ularni chuqur tadqiq etish H.P.Grays (bu haqidagi g‘oyalar 1975-yil “Logic and conversation nomli maqolasida va shu yili “Syntax and semantix” asarining 3-jildida joy oladi”), D.Sperber va D.Uilsonlarning (“Relevance: Communication and cognition” asarida 1986-yilda bayon etadilar) izlanishlaridan boshlangan desak xato bo‘lmaydi.

Implisit atamasi lotincha “*implicitus*” soʻzidan olingan boʻlib, “*yashirin*”, “*berkitilgan*” maʼnolarini anglatadi. Implisit tushunchasini Z.V. Scherba, G.O. Vinokur, V.V. Vinogradov, A.A. Potebnya, Y.M.Lotman, R. Bart, Y. Mukarjovskiy, G.S. Stepanov, L. Todorov, I.V. Arnold, I.R. Galperin, V.A. Kuxarenko, A.N. Morochovskiy, Y.M. Skrebnev, Z.Y. Turaeva, Molchanova, S.Y.Nikitina, Y.V.Vlasova, V.L.Medinskaya, G.G.Infantova, V.B.Kolosova, N.D.Arutyunova, A.V.Bondarko, T.I.Silman, M.V.Nikitin, G.F.Gavrilova, L.V.Lisochenko, T.A.Kolosova, S.V.Stepanyuk, O.S.Axmanova, I.L.Muxanov, D.U.Ashurova va boshqalarning ishlarida kuzatiladi.

Implikatsiyaga ham turli taʼriflar beriladi:

“-“Implikatsiya” atamasi mantiq ilmidan oʻzlashtirib olingan boʻlib, ikki murakkab bayonotning bogʻlashga xizmat qiladigan mantiqiy bogʻlanishni anglatadi, hamda tilda “agar A...boʻlsa, u holda B...” bogʻlovchi vosita sifatida ifodalanib, a-antesedent, b-konsekvent vazifasini oʻtaydi”; (Просьянникова О. И., 2004, 8.)

“-Implisitlilik bilvosita, yashirin, toʻliq ogʻzaki shaklga koʻchmagan maʼlumotni uzatishni maqsad qilingan yana bir badiiy matnning oʻziga xos kategoriyasidir”; (Ashurova D. U., 2012, 67.)

Shuningdek, Maykl Polanyi “*implisit bilimni inson ongida mavjud boʻlgan, lekin aniq ifoda qilinmagan bilim*” deb taʼriflaydi (Michael P., 1966, 108). Daniel Kahneman “*implisit tushunchasini inson ongining avtomatik va tezkor ishlov berish jarayonlari*” bilan bogʻlaydi.(Daniel K., 2011, 499) Lev Vigotski esa “*implisit tushunchasini til va fikrlashning rivojlanishidagi yashirin jarayonlari*” bilan bogʻlaydi(Vygotsky L., 1962, 344). Pyer Bordyo “*implisit tushunchasini ijtimoiy maydon va odatlarning yashirin qonuniyatlari*” bilan izohlaydi (Bourdieu P., 1998, 144).

## ASOSIY QISM

Implikatsiyani tadqiq qilishda oʻzbek tilshunosi D.U.Ashurovaning tadqiqotlari ham katta xizmat qiladi. Xususan, uning “Text linguistics” asarida

implikatsiya haqidagi bilimlarini yoritib o‘tadi va Graysning tadqiqotlariga asoslanib implikatsiyaning quyidagi turlarini ko‘rsatadi:

**11.** Miqdorning postulatini yoki maksimalini buzish (“qisqacha”) alliteratsiya, anafora, epifora, har xil takrorlash kabi. Haqiqiy ma’lumotlar nuqtayi nazaridan bu alomatlar ortiqcha bo‘lib tuyuladi. Biroq, matnda bir xil til belgisining ataylab takrorlanishi yangi yashirin ma’lumotlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi; Masalan:

### **Yo‘qolgan uzuk**

*Afandi ko‘chaga chiqib ketayotib, uyda uzugini tushib qo‘ydi. Uy qorong‘i bo‘lgani uchun uzugini topa olmagach, ko‘chaga chiqib axtara boshladi. Yo‘lda o‘tib ketayotgan bir kishi Afandidan:*

*-Afandi, nima axtaryapsiz? – deb so‘radi.*

*-Uyda uzugim yo‘qolib qolgan edi, shuni qidirypman.*

*-Uyda yo‘qolgan narsani ko‘chadan axtaradimi kishi?*

*-Qiziqmisiz, uy qorong‘i bo‘lgandan keyin ko‘chada axtarmay, qayerda axtaray? — javob berdi Afandi.*

### **Tarjimasi:**

#### ***There is more light here***

*Someone saw Nasrudin searching for something on the ground.*

*“What have you lost, Mulla?” he asked. “My key,” said the Mulla. So they both went down on their knees and looked for it.*

*After a time, the other man asked: “Where exactly did you drop it?”*

*“In my own house.”*

*“Then why are you looking here?”*

*“There is more light here than inside my own house.” ( Idris Sh., 1974, 9. )*

“Yo‘qolgan uzuk” latifasida “uy” bilan bog‘liq iboralarning takrorlanishi, unda ta’sirchanlikni oshirgan, ritm va ohang, urg‘u qo‘shgan, maqsadli auditoriyaga ta’sirini kuchaytirgan. Tarjimasida esa, asosan ma’no saqlashga e’tibor qaratilgan va bu holat yoqolgan. Kulgu holati ham asl matn bilan solishtirganda biroz pastroq.

12. Postulat yoki Sifat Maksimini buzilishi (“ma’lumotni to’g’ri ekanligiga o‘z hissangizni qo‘shing”) real va “xayoliy” olamlar bilan qarama-qarshi qo‘yilgan ma’lumotga asoslangan metafora, giperbola, litotalar, so‘z o‘yinlari, kinoya kabi implikatsiyalar orqali yasaladigan harakatlardir; Masalan:

***Hushyor bo‘rilar ekan***

*Afandi xotinidan o‘lgan odam qanday bo‘lishini so‘raganida, xotini:*

*“Odamning badani sovib qoladi”, dedi.*

*Afandi qish kunlarining birida daladan eshakda o‘tin olib kelayotgan edi. Badani sovib qoldi. Afandi o‘zini yerga tashlab, endi men o‘libman deb, jim yotaverdi. Hayal o‘tmay, ko‘zini ochib qarasa, uch-to‘rtta och bo‘ri eshakni o‘rtaga olibdi. Afandi yotgan erida:*

*-Hushyor bo‘rilar ekan, eshakning egasi o‘lganini darrov bilishibdi-ya! - dedi.*

***Tarjimasi:***

***I’d have shown you***

*“Some people”, said the Mulla to himself one day, “are dead when they seem alive. Others, again, are alive although they seem dead. How can we tell if a man is dead or if he is alive?”*

*He repeated this last sentence so loudly that his wife heard. She said to him:*

*“Foolish man! If the hands and feet are quite cold, you can be sure he is dead.”*

*Not long afterwards, Nasrudin was cutting wood in the forest when he realized his extremities were almost frozen by the bitter cold.*

*“Death”, he said, “now seems upon me. The dead do not cut wood; they lie down respectably, for they have no need of physical movement.”*

*He lay down under a tree.*

*A pack of wolves, emboldened by their sufferings during that harsh winter, and thinking the man dead, descended upon the Mulla’s donkey and ate it.*

*“Such is life!”, the Mulla reflected; “one thing is conditional upon another. Had I been alive, you would not have taken such liberties with my donkey.” ( Idris Sh., 1974, 105).*

Bu latifada o‘limni “badanni sovib qolishi” va bo‘rilarni “hushyor bo‘rilar”ga o‘xshatilib latifada ta’sirchanlik oshirilgan bo‘lsa, ingliz cha tarjimasida esa, e’tibor asosan “death” ya’ni o‘limga qaratiladi va uni “liberty-ozodlik”ka qiyoslanadi, inglizcha va o‘zbekcha shakllarida ham bu stilistik vositadan foydalanilib, tarjimada ham ma’no saqlashga harakat qilinadi.

13. Postulat yoki maksimal uslubni buzish (“noaniqlikdan saqlaning”) matndagi mantiqiy ketma-ketlikning buzilishiga asoslangan yashirinlikni keltirib chiqaradi retrospeksiya, istiqbol, ustuvorlikning implikatsiyasi, ochiq yakun kabilar va boshqalar. Masalan:

***Suzishni bilar eding, shekilli?***

*Afandining ikki xotini bor edi, kunlarning birida katta xotini yig‘lamsirab dedi:*

*-Siz kichik xotiningizni yaxshi ko‘rasiz, doim uning yonidasiz!*

*-Men ikkalangni ham bir xilda ko‘raman, deb javob berdi Afandi.*

*Xotini Afandining ko‘ngli qaysi biriga moyilligini bilmoqchi bo‘ladi:*

*-Daryoning boshidan uchalamiz qayiqda ketayotgan bo‘lsak, tasodifan qayig‘imiz g‘arq bo‘ldi deylik, qaysi birimizni oldin qutqarasiz?- dedi.*

*-Sen suzishni bilar eding, shekilli?-dedi Afandi katta xotiniga.*

***Tarjimasi:***

*Khodja Nasreddin’s two wives, trying to settle the eternal argument who of them their husband loves more dearly, bothered him with the question:*

*- If we were sailing along the river and our boat turned over, who of us would you rescue first?*

*Khodja smiled and tenderly said to his elder wife: - You seem to know swimming a little bit? (Jodja Nasreddin, 2007, 74).*

Mazkur latifada voqea Afandi va xotini orasidagi suhbatga asoslangan bo‘lib, retrospeksiya asoslanadi, ya’ni “-Sen suzishni bilar eding, shekilli?”-deb, xotiniga o‘tmishi, suzishni bilishini eslatib suhbatni yakunlayapti, bir vaqtning o‘zida latifa



ta'sirchanligini oshiryapti. Tarjimada ham bu xolat saqlanib qolgan hamda "You seem to know swimming a little bit?" tarzida berilyapti.

Endi "eksplicit" tushunchasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, explicit tushunchasi "aniq", "oshkora", "ochiq-oydin" yoki "ifodalangan" ma'nolarini bildiradi. Bu tushuncha ko'pincha "implisit" (yashirin, oshkor bo'lmagan) tushunchasining qarama-qarshisi sifatida ishlatiladi. Masalan:

### **Jonon**

*Afandini aldab cho'tir, puchuq, qari bir qizni olib berishdi. Yuz ko'rishar kuni xotin Afandidan so'radi:*

*-Qarindoshlaringiz ko'p ekan, qaysi biriga ko'rinay, qaysi biridan qochay?*

*-Hammasiga ko'rina bering, jonon,- dedi Afandi. -Faqat mendan qochsangiz bas!*

### **Tarjimasi:**

### **The veil**

*It was Mulla's wedding day. The marriage had been arranged, and he had never seen his wife's face. After the ceremony, when she removed her veil, he realized she was terribly ugly. While he was still stunned from this shock, she asked him:*

*"Now tell me, my love, your commands. In front of whom shall I remain veiled, and to whom shall I be allowed to show my face?"*

*"Show your face to anyone you like," groaned the Mulla, "as long as you don't show it to me."*

Bu latifada Afandi xotiniga javoban "Hammasiga ko'rina bering, jonon,- dedi Afandi. -Faqat mendan qochsangiz bas!" deb maqsadini aniq bayon qiladi. Tarjimasida ham "Show your face to anyone you like," groaned the Mulla, "as long as you don't show it to me." deb beriladi. Lekin shuni ham inobatga olish joizki, bu latifalardagi ma'nolarni implisit yo eksplisit tarzida qanday qabul qilish tinglovchi yo o'quvchining ongi va qabul qilish qobiliyatiga ham bog'liq.

### **XULOSA**

Xullas, implisit uzatilayotgan fikrlarning yashirin, berkitilgan holda uzatilishi bo‘lib, latifalarda ta’sirning oshirilishi, maqsadning yashirish orqali muloqot odobini ham ko‘rsatish hisoblanadi. Tarjimada esa, har doim ham implisitatsiya saqlanib qolavermasligi mumkin, bu tarjimadagi dunyo tushunchalariga ham bog‘liq. Va albatta, eksplisit va implisit tushunchalarning qanday qabul qilinishi bu tinglovchilarning ham hissiy olamiga bog‘liq. Tarjima jarayonida esa tarjimondan mahorat talab qilinadi. Asliyatdagi latifalardagi kulgu hissini saqlab qolish tarjimondan latifaning qanchalik tushunganligi va tarjima qilinayotgan tilda qaysi til vositalari orqali tarjima qilinishi, yo shu kulguni saqlab qolish uchun qaysi boshqa til vositalari bilan almashtirish mumkinligi muhim sanaladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Просяникова О. И. Актуализация имплицитности художественной детали в текстах психологической прозы (на материале английского психологического рассказа XX века). – Авт. дис... к.ф.н. –Санкт-Петербург: 2004. С.8.
2. Ashurova D.U. Text linguistics. T: “Tafakkur qanoti”, 2012. B.67.
3. Michael Polanyi. The Tacit Dimension. Garden City, New York, Doubleday & Co.: 1966. P.108
4. Daniel Kahneman. Thinking, Fast and Slow. New York, Farrar, Straus and Giroux, 2011. P. 499
5. Lev Vygotsky. Thought and Language. Cambridge, Massachusetts, The MIT Press, 1962. P. 344
6. Pierre Bourdieu. Practical Reason: On the Theory of Action. Stanford, California, Stanford University Press, 1998. P. 144.
7. Peterson Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. – T.: Qatortol-Kamolot. 2000. – P.188.

8. Афанди латифалари. Баходир саримсоқов, Фарида Йўлдошева. Тошкент. Гофур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. Б. 37.
9. Shah I. The Exploits of Incomparable Mulla Nasriddin. – London, 1974. – P.112.
10. Khodja Nasreddin. “Forum of culture and arts of Uzbekistan” foundation. Ed. San’at. 2007.

## REFERENCES

1. Prosyannikova, O. I. (2004) Actualization of the implicitness of artistic detail in texts of psychological prose (based on the material of an English psychological story of the 20th century). Auth. dis... Ph.D. Saint Petersburg. P.8.
2. Ashurova, D.U. (2012) Text linguistics. Tashkent. “Tafakkur qanoti”. B.67.
3. Michael, Polanyi. (1966) The Tacit Dimension. Garden City. New York, Doubleday & Co. P.108
4. Kahneman D. (2011) Thinking, Fast and Slow. New York, Farrar, Straus and Giroux. P. 499
5. Vygotsky Lev (1962) Thought and Language. Cambridge, Massachusetts: The MIT Press. P. 344
6. Bourdieu Pierre. (1998) Practical Reason: On the Theory of Action. Stanford, California: Stanford University Press. P. 144.
7. Peterson M. (2000) Treasury of Uzbek Legends and Lore. Tashkent. Qatortol-Kamolot. P.188.
8. Sarimsakov B., Yuldasheva, F. (1989) Effendi anecdotes. Tashkent: Publishing House of Literature and Art named after Gafur Ghulam. P. 37.
9. Shah I. (1974) The Exploits of Incomparable Mulla Nasriddin. London. P.112.
10. Khodja Nasreddin. “Forum of culture and arts of Uzbekistan” foundation. Ed. San’at. 2007.